



FRANSUZ TILIDAN O‘ZBEK TILIGA O‘ZLASHGAN SO‘ZLARNING IFODALANISHI XUSUSIDA

Jurayeva Shalola Xusanboyeva,

Farg‘ona davlat universiteti,

Chet tillari fakulteti,

fransuz tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada fransuz tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan leksik birliklarning ifodalanish xususiyatlari, ularning fonetik, morfologik va semantik o‘zgarishlari tahlil qilinadi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan bu jarayon o‘zbek tilining so‘z boyligi va rivojlanishida qanday rol o‘ynashi, shuningdek, o‘zlashma so‘zlarning madaniy va tarixiy kontekstdagi ahamiyati yoritiladi. Maqolada fransuzcha kelib chiqishga ega so‘zlarning o‘zbek tilida qanday shakllarda qo‘llanilayotgani misollar orqali ko‘rsatilib, ularning tilimizdagi moslashuvi va o‘zlashtirilish darajalari o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *fransuz tili, o‘zlashma so‘zlar, o‘zbek tili, lingvistik tahlil, fonetik o‘zgarish, morfologik moslashuv, semantik moslashuv, leksikologiya, til o‘zaro ta’siri, madaniy almashinuv*

Leksika-bu tilning eng kuchli harakatlanuvchi qatlamidir. Har qanday tilning leksikasi doimiy to‘ldirib, yangilanib, boyitilib boriladi. Hozirgi kunda o‘zbek tili boshqa tillar kabi katta miqdorda yangi so‘zlarni qabul qilish oqimiga duch kelmoqda. Yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi xalq ongining o‘sishi, xalq madaniy, siyosiy va iqtisodiy hayotining taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq. Yangi so‘zlar xalq hayotida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni tez va to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilib, mahalliy tilga hech qanday qiyinchiliklarsiz kirib kelmoqda, shuning uchun ham tilning lug‘at tarkibi doimiy o‘zgarishdadir.

Tilning lug‘aviy tarkibi-barqaror elementlar birligidan tashkil topib, turli xil yo‘llar bilan yasalgan yangi tushunchali leksik birliklarga izoh berishdir. O‘zbek tilidagi yangi so‘zlar tilning leksik semantik sistemasiga kirib borishi va qaror topishi, lug‘atlarda yangi so‘zlarning ro‘yhatdan o‘tishi, uning tilda mavjudligini ifodalaydi.

O‘zbek tilining izohli lug‘ati har yili yangi so‘zlar bilan boyitilib kelinmoqda. So‘zlarning shu jihatlariga aniqlik kiritish maqsadida o‘zbek tili izohli lug‘ati orqali o‘zbek tiliga fransuz tilidan kirib kelgan so‘zlarning o‘ziga xos ayrim jihatlarini xususida fikr yuritmoqchimiz.



O'zbek tilining izohli lug'atida bugungi kundalik hayotimizda foydalanilayotgan so'zlarning o'ziga xos xususiyatlarini ochib bermoqchimiz: mohiyati bilan tanishamiz:

O'zbek tilining izohli lug'atida :

Avans-fransuz tilidan o'zbek tiliga kirib kelgan so'z bo'lib, biror ish yuzasidan keyinchalik hisob berish sharti bilan oldindan beriladigan pul, oziq ovqat va shu kabi ma'nolarni anglatadi.

Adres-(fr. adresse) biror kishi yoki tashkilot o'rnashgan joyning batafsil nomi.

Akvarel-fr.Suvda eritib ishlatiladigan bo'yoq, suv bo'yoq.

Albom-(fr.album) rasm chiziladigan she'r qo'shiq xotira va shu kabilar.

Bu so'z fransuz tili izohli lug'atida mujskoy rodga bo'lib, rasmlar chiziladigan qog'oz to'plami degan ma'noni bildiradi.

Anketa-tegishli ma'lumot olish, to'plash uchun belgilangan so'roq varaqasi.

Anons-Gastrol, spektakl, konsert va shu kabilar haqidagi oldindan tarqatilgan e'lon.

Franchuzchada (**annonce**) Jenskoy rodga bo'lib, biror harakatni e'lon qilish, ma'lum qilish.

Ansambl-(fr.) O'zaro mos va uyg'un qismlarining birikuvidan hosil bo'lgan bir butun narsa.

Fransuz tilida ensemble-Bir biri bilan birgalikda degan ma'noni anglatadi.

Antrakt-spektakl pardalari yoki konsert bo'limlari orasidagi tanaffus.

Fransuzcha entracte-mujskoy rodga spektaklning turli qismlari orasidagi interval.

Afisha -[fr] Spektakl, konsert, va sh.k.lar haqida ko'rinarli joylarga yopishtiriladigan e'lon.

Fransuzcha (**affiche**) Jenskoy rodga bo'lib, bosilgan varoq, rasmiy xabarnoma degan ma'noni anglatadi.

Aktyor [fr+r] Teatrda yoki kinoda rol bajaruvchi.

Fransuzcha (acteur)teatr yoki filmda rol o'ynaydigan artist.

Amortizator [fr+r] Urilish zarbini yumshatib turuvchi moslama.

Amper [fr] Elektr tokining o'lchov birligi.

Fransuzcha (ampere) mujskoy rodga elektr tokini o'lchov birligi.

Ampermetr[fr+yun]/Tok kuchini o'lchaydigan asbob.

Fransuzcha ampermetr so'zi mujskoy rodga bo'lib, elektr tokini intensivligini o'lchash uchun mo'ljallagan asbob.

Artist [fr] 1.San'at asarlarini tomoshabinlar uchun ijro etuvchi. 2 ko'ch. s.t. Biror sohada yuksak mahoratga ega bo'lgan, havosini, hadisini olgan odam.

Fransuzcha artiste san'at bilan shug'ullanuvchi shaxs.





Assambleya [fr] Xalqaro tashkilot a'zolarining yoki bir necha davlat vakillarining yalpi majlisi.

Fransuzcha (assemble) jenskoy rodde bo'lib, odamlarni bir joyda uchrashishi.

Assanans(fr.) aynan yoki yain unlilarning takrorlanishi natijasida yuzaga keladigan ohangdoshlik.

Fransuzcha (assonance) jenskoy rodde kelib, gapda bir xil tovushning takrorlanishi

Bagaj (fr) 1.Yo'lovchining yuki, yuk. 2 ko'ch. Bilim, saviya.

Fransuzcha bagage mujskoy rodde o'z narsalarini olib yuradigan sayohat elementi.

Bal [fr] Katta raqs kechasi.

Fransuzcha (bal) mujskoy rodde raqs uchrashuvi.

Dubletlar (фран. doublet < double - ikkili).Bir xil (teng) semantik tarkibga ega bo'lgan til birliklari. Mas, tilchi- tilshunos, adab- odob, arziydigan-arzirli va b.

Jargon (фран. jargon). Biror guruh vakillarining , o'z nutqi bilan ko'pchilikdan ajralib turish maqsadida, o'zicha mazmun berib ishlatadigan so'z va iboralari.

Mas, novcha (ariq), qizil (vino)- ichuvchilar nutqiga xos; tog'amninf o'g'li (militsoner, inspector)- shofyorlar nutqida.

Invariant (фран. invariant – o'zgarmas). Tilning qurilish birligining (fonema, morfema, leksema va sh.k.)nutqdagi muayyan voqelanishidan ajratib, mahhum olingan holati.

Kalambur (фран. calembour – so'z o'yini) – aynan so'z o'yini

Kal'ka (фран. caique – kopiya, taqlid). O'zga til materialidan qismma-qism nusxa olish yo'li bilan hosil qilingan so'z yoki boshqa til birligi.

Lingvistika (фран. Linguistique or. Lingua-til) ayn.Tilshunoslik.

Model (фран. Modele угал. modello - namuna, qolip).biron til hodisasi (nutq birligi) tarkibiy qismlarining joylashish holatini ko'rsatuvchi sxema yoki namuna.

Parsellyatsiya (фран. parcele<лог. particile-bo'lakcha). Gapning ekspressiv maqsad bilan bo'laklanishi bo'lib, unda gapning bir qismi ayiruvchi to'xtamdan keyinga, gapning tashqarisiga chiqariladi.

Replika (fr.) dialogik nutqda har bir suhbatdoshning gapi.

Fransuzcha (replique) jenskoy rodde aytilgan yoki yozilgan savolga tez javob berish.

Semantika (fr.)Til birliklarining mazmun, ma'no tomoni.

Fransuzcha (semantique-ifodalovchi) lingvistik birliklarni ilmiy tadqiq qilish

Situatsiya (fr.) nutq akti yuz berayotganda unga ta'sir ko'rsatuvchi sharoit.

Fransucha (situation-vaziyat, sharoit, holat.)

Tire (fr.) defisga nisbatan uzunroq chiziq bilan ifodalanadigan tinish belgisi.



Fransuzcha (tiree - chiziqcha, tirer - tortish, uzaytirish) uzoq va alamli masofa.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan so'zlar fonetika va etimologiya ko'nikmalariga ega leksikograflar, yozish uslubiga ega tilshunos mutaxassislar tomonidan ta'rif berib kelinmoqda. Uzoq tarixiy jarayonda o'zbek tilining rivojlanish bosqichlarida, xalqaro madaniy va ilmiy aloqalarning kengayishida yuzaga kelgan va yuzaga kelayotgan juda ko'p so'zlarni uchratish mumkin. Shu sababli hozirgi kunda fransuz tilidan o'zlashtirilgan so'zlar o'zbek tili lug'at tarkibining boyishiga juda katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, tilimiz doimo rivojlanib borar ekan, lug'atlar har yili jamiyatni dunyo bilan bog'laydigan va madaniy-ma'naviy o'zgarishidagi yangi atamalar, so'zlar va iboralar bilan kengayib boradi. Xalqning lug'at va so'z boyligi uning hayotini aks ettiruvchi vositadir. Shuning uchun ham barcha tillardagi izohli lug'atlar o'z yo'lida jamiyatning kuzatuvchilaridan biri bo'lib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Hojiyev. O'zbek tilining atamalar lug'ati
2. Abdurazzoqova, Ziyoda Baxtiyorjon qizi. "English, German and French Loanwords in Uzbek Language." *Current Research Journal of Philological Sciences*, vol. 2, no. 11, 2021, pp. 146-149.
3. Anvaronva, Mansurova Nodira. "Loanwords in the Uzbek Language of Terminology." *Middle European Scientific Bulletin*, vol. 20, 2022, pp. 39-42.
4. Pazilova, Nasibaxon Muhammadqosimovna, and Hasanova, Dilnoza Tojiddinovna. "The Investigation of Specific Words Related to the English, German and French Languages in the Explanatory Dictionary of the Uzbek Language." *Texas Journal of Philology, Culture and History*, vol. 11, 2022, pp. 39-42.
5. Rustamova, Feruzabonu. "Vocabulary of the Modern French Language and Its Reflection in Modern Fiction." *Центр Научных Публикаций (buxdu.uz)*, vol. 13, no. 13, 2022.
6. Khusanboyevna, J. S. (2023). L'ENSEIGNEMENT INTERACTIF. *INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE* 2022, 2(19), 1-4.
7. Khusanboyevna, J. S., & Ravshanbekovna, M. A. (2023). LA COMPETENCE DE COMMUNICATION. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 6(5), 56-60.





8. Khusanboyevna, J. S., & Saidjonovna, M. M. (2023, April). MÉTHODOLOGIE D'ENSEIGNEMENT DES LANGUES ÉTRANGÈRES AUX CLASSES PRIMAIRES. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 2, No. 13, pp. 16-20).

9. Xusanboyevna, J. S. (2023). CHET TILINI O'RGANISHDAGI SAMARALI USULLAR. *SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 6(4), 369-373.

